



HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA UNDOSH FONEMALAR TIZIMI VA ULARNING FONETIK-FONOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qurbonova Jasmina

Navoiy, Sharq universiteti 1- kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

Safoyeva Shodiya

Navoiy, Sharq universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0001-2122-3364

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilida undosh fonemalar tizimi keng yoritilgan. Maqolada undosh tovushlarning hosil bo‘lish o‘rni va usuli, jarangli-jarangsiz, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun tovushlari kabi guruhlari ilmiy asosda tasniflanadi. Shuningdek, fonemalarning nutqdagi funksional roli ya‘ni ma‘no farqlash xususiyati, fonologik oppozitsiyalar, assimilyatsiya, dissimilyatsiya kabi jarayonlar misollar orqali yoritilgan. Maqolada o‘zbek tilidagi undoshlar tizimining o‘ziga xos jihatlari, boshqa turkiy tillar bilan umumiy va farqli tomonlari ham ko‘rib chiqiladi. Shunga ko‘ra mavzu tizimli tarzda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *hozirgi o‘zbek adabiy tili, fonetika, fonologiya, undosh fonemalar, tovush tizimi, jarangli va jarangsiz undoshlar, portlovchi undoshlar, sirg‘aluvchi undoshlar, burun tovushlari, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, fonetik jarayon, nutq tovushlari, fonema, bo‘g‘in.*

Hozirgi o‘zbek adabiy tili murakkab va mukammal tovush tizimiga ega bo‘lib, unda fonetika va fonologiya muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, undosh fonemalar tilning asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. Ular nutq jarayonida ma‘no farqlash, so‘zlarni shakllantirish va ifodali aniq yetkazishda muhim vazifani bajaradi.

Yangi o‘zbek lotin alifbosini tuzishda klassik lotin alifbosining aynan shaklidan foydalanilmagan. Alifboga quyidagicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan: 1) lotin alifbosidagi 26 harfdan *w, c* harflari o‘zbek lotin alifbosiga olinmadi, 2) lotin alifbosida *ks* tovushlari tizmasini ifodalaydigan *x* harfiga o‘zbek lotin alifbosida chuqur til orqa ‘x’ tovushini ifodalash vazifasi birlashtirildi, 3) *y* harfiga til o‘rta ovozdor tovushni ifodalash vazifasi birlashtirildi, 4) *j* harfiga sirg‘aluvchi ‘z’ tovushini ifodalashdan tashqari portlovchi ‘ç’ tovushini ham ifodalash vazifasi yuklandi, 5) *o* harfiga o‘rtadan tor ‘o’ tovushini ifodalashdan tashqari o‘zbekcha kengdan torroq ‘a’ tovushini ifodalash vazifasi yuklandi (Bir harf bilan ikki boshqa-boshqa tovushni ifodalashdek salbiy hodisa hozirgi alifboga rus alifbosi asosidagi o‘zbek alifbosidan ko‘chib o‘tti), 6) yangi o‘zbek alifbosiga arabcha leksemalardan ishlatish uchun tutuq belgisi (‘) kiritildi, 7) alifboning oxiridan bir tovushni harfga belgi qo‘shib, ikki harfni qo‘shib ifodalash usuliga asoslangan harflar o‘rin oldi. Natijada, yangi



o‘zbek lotin alifbosi 29 harf ya’ni 23 undosh, 6 unli (*a, e, i, o, u o’*)_va bir belgidan iborat bo‘lib, 31 tovushni ko‘rsatishga xizmat qildirildi.¹

Nutq tovushlarining akustik xususiyati deganda, ular xususiyatlari, ya’ni quloqqa chalinishi, eshitila olinish xususiyati tushuniladi. Ma’lumki, har qanday tovush biror jismning boshqasi ta’sirida tebranishi natijasida paydo bo‘ladi. Nutq tovushlari paydo bo‘lishi ham ana shunday tebranish natijasidir. O‘pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini tebratishi va organlarida hosil bo‘ladigan shovqin natijasida nutq tovushi vujudga keladi.²

Nutq tovushlari shovqin va ovozdan hosil bo‘ladi. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra tovushlar ikki katta guruh –*unli va undoshlarga* ajratiladi.

Agar o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratib o‘tib, og‘iz bo‘shlig‘ida qarshilikka uchramasa, unda *unli tovush* hosil bo‘ladi.

Agar o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratish yoki titratmasligidan qat’i nazar og‘iz bo‘shlig‘ida qarshilikka uchrasa, unda undosh tovush hosil bo‘ladi.

Nutq tovushlarining *akustik* xususiyati deganda, ularning xususiyatlari, ya’ni quloqqa chalinishi, eshitila olish xususiyati tushuniladi. Ma’lumki, har qanday tovush biror jismning boshqa jism ta’sirida tebranishi natijasida paydo bo‘ladi. Nutq tovushlari paydo bo‘lishi ham ana shunday tebranish natijasidir. O‘pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini tebratishi va nutq organlarida hosil bo‘ladigan shovqin natijasida nutq tovushlari vujudga keladi. Nutq tovushlarining akustik xususiyati, ularning kuchi, baland tembri va cho‘ziq-qisqaligi bilan ifodalanadi.

Harf – yozuvda nutq tovushlarini (fonemalarni) ifodalash uchun xizmat qiladigan grafik belgi, alifboning tarkibiy qismi, u tovushning yozma shakli bo‘lib, odatda har bir tovushga bitta harf to‘g‘ri keladi (masalan, a, b, k, l.). Harflar majmuasi esa alifboni tashkil etadi.³

Yuqorida qayd etilgan tovushlar fonetika birligi sifatida o‘rganilganda nutq tovushlari yoki fonlar deb yuritiladi. Fon hozirgi zamon tilshunoslikda keng tarqalgan atama bo‘lib, nutqning eng kichik ma’no anglatmaydigan birligidir.

Tovushlar til birligi sifatida o‘rganilganda esa til tovushlari yoki fonemalar deb yuritiladi. Fonema eng kichik ma’no anglatmaydigan til birligidir. Fon va fonemani bir-biridan ajratish XIX asrning oxiri va XX asrning boshiga to‘g‘ri keladi. Og‘zaki nutq va yozuvga diqqat bilan nazar tashlansa, yozuvdagi cheklangan til tovushlariga nutqdagi cheksiz tovushlar to‘g‘ri kelishining guvohi bo‘lamiz.

Undosh tovushlarning tasnifi. Avval aytilganidek, undoshg tovushlarining hosil

¹ Shavkat Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” darslik.Toshkent.2006.

² M. Irisqulov.Tilshunoslikka kirish..Yangi asr. Toshkent 2009.25-b

³ Wikipedia



bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratishi yoki titratmasligidan qat'i nazar og'iz yoki burun bo'shlig'ida qarshilikka uchraydi. Agar o'pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratmasdan faqat og'iz bo'shlig'ida qarshilikka uchrasa, bunday tovushlar faqat shovqindan tashkil topib, ular *jarangsiz undosh* tovushlar deyiladi (t, s, k, p, f, va boshqalar). Agar o'pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratsa hamda og'iz bo'shlig'ida qarshilikka uchrasa, u holda ovoz va shovqindan tashkil topgan undosh tovushlar hosil bo'ladi. Bunday undoshlarni ikkiga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Agar ovoz shovqindan ustun tursa, bunday undoshlar *sonor* yoki *sonantlar* deyiladi (masalan, m, n, l, y va boshqalar). Ular o'z navbatida burun va og'iz sonorlariga ajratilishi mumkin. Burun sonorlariga o'zbek tilidagi [m], [n], [ng] tovushlari va boshqa tillardagi shularning ekvivalenti kiradi. Bu tovushlar talaffuzda yumshoq tanglay pastga tushgan bo'lib, havo burun bo'shlig'idan o'tadi.

Og'iz sonorlari yon [l], titroq [r], o'rta [y] tovushlaridan iborat bo'ladi.

Agar shovqin ovozdan ustun tursa, bunday undoshlar *jarangli undoshlar* deyiladi (b, v, g, j, d va boshqalar).

Og'iz va shovqinning ishtirokidan tashqari undoshlar *talaffuz o'rniga ko'ra va hosil bo'lish usuliga ko'ra* turlarga ajratiladi.

Talaffuz o'rniga ko'ra undoshlar *lab, til va bo'g'iz* tovushlariga ajratiladi.

Lab undoshlarini ikki labning uchrashuvi natijasida hosil bo'ladigan lab-lab tovushlari ([l], [p],[m]) va lab bilan pastki tishlarning uchrashuvi natijasida hosil bo'ladigan lab-tish tovushlari ([v], [f]) ga ajratish mumkin.

Til undoshlari til oldi, til o'rta, til orqa va chuqur til orqa tovushlariga bo'linadi.

Til oldi undoshlariga [t], [d], [s], [sh], [n] kabi tovushlar kiradi. Til oldi tovushlari o'z navbatida dorsal (tish) [s], [z], [n], apikal (tanglay) [t], [d] va kakuminal (til orqa) – [ch], [sh], [j] tovushlariga ajratiladi.

Til o'rta undoshi [y]. O'zbek tilidagi bu tovush til va tanglay o'rta qismida hosil bo'ladi.

Til orqa undoshlari [q], [g'] tovushlari o'zbek tilida til orqa qismining tanglayini o'rta qismidan orqarog'iga tegishi natijasida hosil bo'ladi.

Chuqur til orqa undoshlari tilning ildizi bilan yumshoq tanglayning bir-biriga tegishi bilan hosil bo'ladi, o'zbek tilidagi [q], [g'] undoshlari shunday tovushlar jumlasidandir.

Bo'g'iz undoshlariga o'zbek tilidagi [h] va arab tilidagi [x] va [g'] tovushlari misol bo'ladi.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlar *portlovchi, sirg'aluvchi, qorishiq* va ba'zi tillarda *nafas* turlariga ajratiladi.

Portlovchi tovushlarga [b], [p], [t], [d] kabilar kiradi. Bu tovushlar talaffuzida o'pkadan chiqayotgan havo oqimi artikulyatsiya qatnashayotgan nutq organlarining qarshiligini yorib o'tadi, natijada portlash ro'y beradi.

Sirg'aluvchi tovushlarga [v], [f], [s], [sh], [j], [x] lar kiradi. Ular talaffuzda



qatnashayotgan nutq organlarida qattiq jipslashish ro'y bermay, balki bu organlar bir-biriga yaqinlashadi, havo oqimi ularning orasidan sirg'alib o'tadi.

Burun tovushlari hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. 'M' tovushi ikki labning bir-biriga tegishi orqali hosil bo'ladi va lab undoshi hisoblanadi. Masalan, *maktab, mehnat, odam*. 'N' tovushi til uchining yuqori milkiga tegishi bilan hosil bo'ladi. Bu tovush til oldi undoshi hisoblanadi. Misol uchun: *non, ona, inson*. "Ng" tovushi esa til orqasining yumshoq tanglayiga yaqinlashishi orqali yuzaga keladi va u til orqa undoshi hisoblanadi. Masalan, *tong, dengiz, ming*.

Assimilyatsiya so'zlarida ikki yonma-yon tovushning bir-biriga ta'sir etishi natijasida, ya'ni oldingi tovushning keyingisiga yoki keyingi tovushning oldingisiga o'xshab ketishi, moslashishidir. Masalan, *otdan-ottan*.

Dissimilyatsiya nutq jarayonida ba'zi bir so'zlarda yonma-yon kelgan ikki tovushning o'xshab ketishi o'rniga noo'xshashlik yuz beradi. Artikulyatsiya o'rni yoki usuli jihatidan bir-biriga o'xshashi yoki yaqin tovushlarning nutq jarayonida bir-biriga o'xshamay qolishi dissimilyatsiya hodisasi deyiladi. Bu hodisa ko'proq jonli tilda uchraydi. Masalan, maqsad – maxsad (qs-xs). Bu so'zda q til orqa portlovchi undosh sirg'aluvchi x tovushi bilan almashgan yoki maqtov-maxtov (qt-xt).

Qorishiq tovushlarga [ch], [j] (o'zbek tilidagi jo'ja so'zidagi tovush) lar kiradi. Bu tovushlar murakkab tarkibli undoshlar ya'ni ular ikki undoshning yig'indisidan tashkil topadi (ch=t+j=d+j jadal, jo'ra so'zlareidagi). Bu tovushlar talaffuzida tilning oldingi qismi milkka taqaladi. Natijada to'la bo'lmagan portlash va uning ketidan sirg'alish ikki xil usul qatnashgan qorishiq tovushlar hosil bo'ladi.⁴

Fonetika (yunoncha fonetikos-tovushga, tovush chiqarishga oid) – tilshunoslikning nutq tovushlarini, ularning hosil bo'lish usullarini, akustik xususiyatlarini va til tizimidagi vazifalarini o'rganuvchi bo'lim. U tovushlar, urg'u, bo'g'in va intonatsiyani o'z ichiga oladi, tilning eng kichik moddiy birligi – nutq tovushlarini tahlil qiladi.

Fonetik o'zgarishlar, tovush o'zgarishlari, fonetik jarayonlar – nutq jarayonida so'zning fonetik tuzulishida, tarkibida sodir bo'ladigan o'zgarishlar. Nutq jarayonida, talaffuzda tovushlar boshqacha aytilishi, tushib qolishi ba'zan esa tovush orttirilishi, bir tovushning ikkinchi tomondan moslashtirilishi mumkin. Bunday fonetik o'zgarishlar tovushlarning kombinatorpozitsion (lotincha, combinare – qo'shmoq, birlashtirmoq va positio – holat, joylashish) o'zgarishlari deyiladi. Kombinator o'zgarishlar yonma-yon tovushlarning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida yuzaga kelgan.

Bo'g'in - so'zning alohida talaffuz qilish mumkin bo'lgan kichik bo'laki. O'zbek tilida bo'g'inlar tugallanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: ochiq bo'g'in – unli tovush bilan tugaydi (masalan, bo-la, o-na); yopiq bo'g'in – undosh tovush bilan tugaydi (masalan, mak-tab, dars).

⁴ Z. Xolmonova. Mutaxassislikka kirish. Shafoat nur fayz. Toshkent. 2020. 25-33-b



Xulosa qilib aytganda, undosh tovushlar tilning muhim fonetik birliklaridan biri hisoblanadi. Tillardagi nutq tovushlari son jihatdan ham, sifat jihatdan ham o‘zaro to‘g‘ri kelmaydi. Ularning akustik- artikulyatsion xususiyatlari ham har xil bo‘ladi. Ular nutqning aniq, ravon va mazmunli bo‘lishini ta‘minlaydi. Undosh tovushlar hosil bo‘lish o‘rni va usuliga ko‘ra turlicha bo‘ladi, har biri so‘z ma‘nosini farqlashda alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, undosh tovushlarga bilan bog‘liq fonetik o‘zgarishlar tilning boyligi va talaffuz qulayligini ko‘rsatadi. Burun tovushlari, jarangli va jarangsiz undoshlar nutq jarayonida faol qatnashib, tilning ohangdorligini oshiradi. Shu sababli undosh tovushlarni chuqur o‘rganish tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Z. Xolmonova. Mutaxassislikka kirish. Shafolat nur fayz. Toshkent. 2020.
2. Shavkat Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” darslik. Toshkent. 2006.
3. M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish.. Yangi asr. Toshkent 2009.
4. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1qism, T., 1980; Reformatskiy A. A, Vvedeniye v yazikovedeniye, M., 1998.
5. Jamolxonov, H.. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin, 2005.
6. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abdusalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2009
7. Mirzayev. M, Usmonov. S, Rasulov. I, O‘zbek tili. Tilshunoslikdan umumiy ma‘lumot . Toshkent. 1978
8. Ne‘matov H o‘zbek tilining tarixiy fonetikasi -T., 1992.
9. Shoabdurahmonov Shu, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Doniyor X, hozirgi o‘zbek adabiy tili 1 qism "O‘qituvchi" T., 1980